UO‘K: 821.161.1-95 + 81.25

CHO‘LPON SHE’RIY ERTAK VA MASALLAR TARJIMONI SIFATIDA

D.Z.Abdullayeva

Maqolada “Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak” asari (A.Pushkin), “Bo‘ri bilan qo‘zichoq”, “Kvartet” masallarining (I.Krilov) Cho‘lpon tarjimasidagi nashrlari o‘rganilgan. Tarjimashunoslikda “Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak” tarjima muallifi masalasi hal etilmagan, “Kvartet” tarjimasi matni esa ma’lum emas edi. Shuningdek, maqolada tarjimalar matni, ularning nashrlaridagi farq, tarjima bo‘yicha adib mahorati tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *tarjima, A.Pushkin she’riy ertagi, I.Krilov masallari, Cho‘lpon tarjimalari, tarjimada badiiy mahorat.*

В статье рассматривается деятельность Абдулхамида Чулпона как переводчика поэтических сказок и басен. Анализируются его переводы сказки А. С. Пушкина «Сказка о попе и о работнике его Балде», а также басен И. А. Крылова «Волк и Ягнёнок» и «Квартет». Уточняется вопрос авторства переводов, ранее не решённый в переводоведении, выявляются различия публикаций и оценивается художественное мастерство Чулпона как переводчика.

Ключевые слова: *художественный перевод, поэтическая сказка, басня, Абдулхамид Чулпон, А.С.Пушкин, И.А.Крылов, переводческое мастерство.*

Kirish

Badiiy tarjima sohasida keng faoliyat olib borgan Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon Aleksandr Pushkinning “Bir pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak” asari va Ivan Krilovning ikki masali – “Bo‘ri bilan qo‘zichoq”, “Kvartet”ni tarjima qilgan edi. Mazkur asarlar tarjimoni Cho‘lpon ekani haqidagi ma’lumotlar ham mavhum edi. “Bo‘ri bilan qo‘zichoq” masalining tarjimoni Cho‘lpon ekani uzoq vaqtlargacha qayd etilmagan bo‘lsa, qolgan ikki asar tarjimasi matni 1935–1937-yillarda chop etilganidan buyon bugungi kungacha ommalashmagan edi.

Material va metodlar

Cho‘lpon 1930-yillarda asosan tarjima bilan shug‘ullandi. Uning tarjimonlik faoliyatida bir she’riy ertak va ikkita masal tarjimalari mavjud bo‘lib, ularning matni 1935–37-yillardagi “Adabiyot xrestomatiya”larida [1, 2, 3] chop etilgan.

Maqolada qiyosiy-tipologik, tarixiy-madaniy metodlar qo‘llanilgan.

Natijalar va muhokama

XX asrning 30-yillari o‘zbek tarjimachiligi haqida adabiyotshunoslikda bir qancha ilmiy tadqiqotlarda, ilmiy maqolalarda so‘z yuritiladi. Biroq bu Cho‘lpon tarjimonlik faoliyatini to‘la qamrab olgan degani emas. Cho‘lponning tarjimonlik faoliyati, uning tarjima asarlarining tavsifi bo‘yicha yaxlit ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Adabiyotshunoslikda Cho‘lpon she’riy va nasriy tarjimalari O.Sharafiddinov [4, 5], G‘.Salomov [6], J.Sharipov [7, 8], N.Karimov [9], N.Vladimirova [10], D.Quronov [11, 12], T.Rahimov [13], R.O‘lmasov [14], D.Abdullayevalar [15]ning tadqiqot va maqolalarida tahlil qilingan.

Aleksandr Pushkinning “Bir pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak” nomli asarini Cho‘lpon qiyomiga yetkazib tarjima qilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Garchi asliyatdagi she’riy vazn aynan

saqlanmagan bo‘lsa-da, biroq ertakka xos uslub va sarkazm mavjud. Ertakdagi popning o‘ta xasis, ziqnaligi “Толоконный лоб” [16] deyilgan bo‘lsa, tarjimon “*Peshonasi ko‘nglidan ham tor ekan*” degan qisqa jumla bilan uning ham tashqi ko‘rinishi, ham fe’l-u atvoriga tavsif beradi. Bunda “ko‘ngli tor” degan o‘zbekona ibora o‘rinli qo‘llanganini kuzatamiz. Popning bozorni shunchaki aylanishi (“Посмотреть кой-какого товару”) “*Mol ko‘rishga va ham ko‘ngil yozarga*” ekani ham popning sajiyasi haqida ma’lumot beradi. Popning ziqna xarakteri uning uyiga xizmatkor olishida qo‘yadigan shartlarida ham bilinib turadi. U oshpaz, otboqar, duradgor, xizmatkorlik kabi hamma ishlarni bajaradigan va ko‘p ish haqi olmaydigan kishini yollamoqchi. Aslini olganda har bir ish uchun alohida-alohida kishilar xizmatga olingan. Ertakda Pop Baldaga “Нужен мне работник” degan jumlani boshqa tarjimon ehtimol “*Menga ishchi kerak*” deb tarjima qilgan bo‘lar edi. Cho‘lpon esa bir necha ishlarni bajara oladigan odamning juda chaqqon bo‘lishi kerakligi nuqtayi nazaridan “*Menga kerak bir shovvoz*” deb o‘giradi. Demak, asliyatdagi “работник” “ishchi” mazmuni bilan aynan bo‘lsa-da, Cho‘lpon pop xohlayotgan ishchining tavsifini ham o‘zida jamlagan “shovvoz” so‘zi bilan almashtiradi. Balda tomonidan o‘z xizmat haqiga, yeyishga “полба” (rus xalqida ommalashgan yormadan tayyorlanadigan ovqat) yetarli bo‘lishi aytilgan misralar “Ovqatimga atala ber, shukr etay” tarzida berilgan. Bu o‘rinda “полба”ning “atala” deb tarjima qilinishi o‘rniga tushgan, chunki atala so‘zi o‘zbek kitobxoniga tanish taom. Bundan tashqari popning xizmatkorlarga tuzuk-quruq ovqat bermasligi ham shu o‘rinda anglashiladi. Polba bug‘doyga o‘xshovchi, lekin to‘yimliligi jihatidan undan past turuvchi yorma turi. Atala ham suv va undan tayyorlasa bo‘ladigan yovg‘on, uncha qimmat bo‘lmagan ovqat. “Atala ichdim qornim to‘q, O‘rnimdan turdim endi yo‘q” degan o‘zbek xalq maqolida ham uning arzon, to‘yimli bo‘lmagan ovqat ekanligi ifodalangan.

Popning Balda taklifiga o‘ylangani “*Pop o‘zini o‘y qo‘yniga tashlaydi*” degan o‘ziga xos ibora bilan berilgan bo‘lib, bu jumla boshqa tarjimonlar tilida takrorlanmaydi.

Yaxshilikka deb tavakkal qilgan odamni rus tilida “авось” so‘zi bilan ifodalanadi. Popning Baldani o‘ziga ishchi qilib olishida “Да понадеялся он на русский авос” iborasi bilan berilgan bo‘lsa, Cho‘lpon pop tilidan “*Mayli, endi – “Erta g‘amin eshak yer!*” deb o‘giradi. Bunda popning xulq-atvor qirralari uning nutqi orqali tasvirlanishiga ham erishilganini ko‘rish mumkin. Baldaning pop uyida barcha ishlarni qilishda tezkorligi va chaqqonligini anglatish uchun “*to‘rt kishining ovqatini uradi*” deb tarjima qiladi. “Ovqatni urmoq” iborasi tez ovqatlanmoq ma’nosini bildiradi. Shu jihatdan asliyatdagi “(ovqatni) yeydi” (“Ест за четверых”)dan ko‘ra tarjimadagi tasvir obrazliroq chiqqan deyish mumkin.

Popning Baldaga haq berishi kerakligi vajidan tashvishlanishi asliyatda “ни ..., ни …” bog‘lovchisi bilan berilgan:

Поп ни ест, ни пьет, ночи *не спит:*
Лоб у него заранье трещит [16. В. 4].

Tarjimada ushbu takrorlar saqlanib, o‘zbek tilidagi “na” inkor bog‘lovchisiga to‘liq mos kelgan:

Na yemak bor, na ichmak bor, na uyqu,
Peshonalar halitdanoq qaytaqi! [1. B. 30]

So‘zlar miqdori (8 ta so‘z) va shaklan qisqa ekanligi ham asliyatdagi kabi yuzaga chiqqan:

Поп / *ни* / *ест,* / *ни* / *пьёт,*/ *ночи* / *не* / *спит* /
1 2 3 4 5 6 7 8
Na / yemak / bor,/ na / ichmak / bor, / na / uyqu /

Odatda kishiga biror narsa juda yoqmasa o‘zbek tili so‘zlashuv uslubida “peshonasi tirishdi” degan ibora qo‘llanadi. Popning bu holati “лоб ... трещит” deb tasvirlangan bo‘lsa, tarjimon kam qo‘llaniladigan so‘zni keltiradi: “Peshonalar halitdanoq qaytaqi!” “Peshona” so‘ziga “-lar” ot so‘z turkumidagi so‘zlarga qo‘shiladigan ko‘plik qo‘shimchasi bu o‘rinda ta’kidlash, ma’no kuchaytirish vazifasini bajargan. Payt ravishining oddiy so‘zlashuv shakli (“*halitdanoq*”) qo‘llangan bo‘lib, jumlaning oson tushunilishini ham ta’minlagan. Peshonaning tirishganligi kam qo‘llaniluvchi, asli turkiy so‘z bo‘lgan “qaytaqi” shakli bilan qo‘llanishi pop tashqi portretini tasvirlashda muvaffaqiyatli chiqqan.

Pop Baldaga haqini bermaslik uchun qayg‘urib, xotiniga yuzlanishi hamda ayolning tasviri, tavsifi asliyatda, shuningdek, tarjimada ham ixcham, obrazli amalga oshgan. Asliyatda:

Ум у бабы догадлив,
На всякие хитрости повадлив [16. В. 5].

Pop ayoliga murojaat qilishi “tan olmoq”, ya’ni “признаваться” so‘zi bilan ifodalangan bo‘lsa, tarjimada “ko‘ngil yormoq” iborasi bilan jonli tasvir paydo bo‘lgan.

Tarjimada uddaburon, qiyin ishga ayyorlik bilan oson yo‘l topadigan pop xotiniga “shayton, makrli” degan istiora orqali aniq tavsif beriladi:

Pop xotini – esli ayol, tadbirli,
Yana tag‘in ancha shayton, makrli. [1. B. 30]

Boshqa o‘rinlarda ham “ayyor”, “quv”, “ustagar” mazmunini ifodalashda tarjimon obrazli usulda “shayton” so‘zini qo‘llaydi. Masalan, Baldaning ayyorona kulgani (“Засмеялся Балда лукаво”) “*Shaytonlarcha kulib oldi Baldaboy*” deb o‘rinli tarjima qilingan.

Mushkul ishning ilojini topgan popning ruhiy holati asliyatda “Стало на сердце попа веселее” deb tasvirlanadi, ya’ni so‘zma-so‘z tarjimada “Popning yuragida shodlik paydo bo‘ldi” mazmunini beradi. Tarjimada ijodiy yondashilib, “*Ag‘darildi pop ustidan katta tog‘*” iborasi qo‘llaniladi. O‘zbek tilidagi “yelkasidan tog‘ ag‘darilmoq” degan ibora jonli, hayotiy tasvirni kitobxon ko‘z oldida namoyon qiladi.

Jinlarning popga o‘lpon to‘lashi kerakligini Balda dag‘dag‘a bilan aytishi ertakda quyidagicha:

Вот ужо будет нам потеха,
Вам, собакам, великая помеха [16. B. 5].

Bunda Balda jinni qo‘rqitib, “endi bizga tomosha bo‘ladi-da” yoki “ana endi maza qilamiz” degan mazmunda aytadi. Bu ibora biror-bir shovqinli, ko‘ngilochar yoki kutilmagan voqea boshlanishi oldidan qo‘llanadi. Xalq jonli so‘zlashuv tilida ham “tomoshangni ko‘raman” iborasi faol ishlatiladi. Tarjimada esa quyidagicha:

Ustingizda sordek qanot keraman,
Siz – itlarning adabingiz beraman! [1. B. 31].

Bu o‘rinda o‘xshatish vositasida ifodalangan sorning o‘z o‘ljasi ustida aylanishi va uni kuzatishi asliyatdagi “будет вам потеха” mazmuniga to‘g‘ri keladi.

Balda jinning nabirasi haqida uni aldash va yutish qiyin bo‘lmasligini o‘ylashi “Этого провести не штука!!” degan misrada berilgan. Tarjimada esa o‘zbek xalqida keng ommalashgan, quv, ayyor kishiga nisbatan “shayton” sifati qo‘llangani kabi, “*Nevarasi shaytondir!*” deb o‘giriladi. Shayton nevarasi suv ostidan chiqib, Balda bilan quyidagicha salomlashadi: “Здравствуй, Балда-мужичок”. Rus tilida “мужик” va “мужчина” so‘zlarining o‘zagi “erkak”, ya’ni jinsni bildiruvchi ma’noga ega. Biroq, eski rus tilida “мужик” so‘zining kelib chiqishi past qatlam, tabaqani bildirib, oddiy, to‘pori, qishloq kishisini anglatgan. “Мужик” so‘zi Baldaga nisbatan keyingi ma’noda qo‘llangani uchun Cho‘lpon tarjimasida quyidagicha shakl olgan: “*Ha, Baldaboy, omonmisan, qishloqi!*”

Balda jinning bolasi bilan yugurishda kim o‘zarga o‘ynash uchun quyonni “mening ukam” deb chopishga qo‘yadi. Bu holat asliyatda Balda tilidan “попляшит под нашу балалайку” iborasi bilan quyidagicha berilgan:

Держит Балда за уши одного зайку:
«Попляши-тка ты под нашу балалайку;
Ты, бесенок, еще молоденек,
Со мною тягатся слабенек [16. B. 6].

Tarjimada:
Quyonlarning birin oldi qo‘liga.
So‘ngra Balda dedi jinning o‘g‘liga:
– Mana endi, do‘mbiramga o‘ynaysan!
Sen tirrancha mendan o‘za olmaysan,
Yaramaysan hatto quvlab yetishga,
Hech vaqtim yo‘q behuda sarf etishga [1. B. 32].

Ertakda rus xalqida faol qo‘llanadigan “Плясать под чью-то дудку” iborasiga rus shoiri ijodiy yondashib, “Попляши-ка ты под нашу балалайку” shaklida beradi. “Плясать под чью-то дудку” iborasi o‘zbek tilidagi “birovning nog‘orasiga o‘ynamoq” ma’nosini bildirib, birovning ko‘rsatmasi bilan ish tutadigan, birovga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunadigan, itoat etadigan kishiga nisbatan aytiladi. Ertakda rus xalqining musiqa asbobi “balalayka” orqali badiiy obraz yaratilgan bo‘lib, rus milliy koloriti hamda hazil, yumor pafosi berilgan. Tarjimada ham ushbu xalqona ifoda saqlanib qolingan bo‘lib, o‘zbek kitobxoniga tanish bo‘lgan musiqa asbobi “do‘mbira”ga almashtirilgan: “*Mana endi, do‘mbiramga o‘ynaysan!*”

Ertak so‘ngida popning Balda bilan shartlashganiga ko‘ra undan uch chertki olishi va bundan azoblanishining tasvirida ham xalqona uslub seziladi:

Бедный поп
Подставил лоб:
С первого щелка
Прыгнул поп до потолка;
Со второго щелка
Лишился поп языка,
А с третего щелка
Вышибло ум у старика.
А Балда приговаривал с укоризной:
«Не гонялся бы ты, поп, за дешевизной» [16. B. 7].

Tarjimada:
Pop tashladi panani[1]*,
Ushladi peshonani,
Tusha ketdi chertkilar
Chertki dema – tepkilar:

[1] Pana – pana joy.

Birinchida “din” uyi,
Irg‘ishladi tom bo‘yi;
Ikkinchi chertki bilan
Judo bo‘ldi tilidan;
Uchinchini ham oldi:
Esidan og‘ib qoldi;
Popning o‘sha ahvoliga bo‘lib mast,
Balda dedi: “Arzon sho‘rva tatimas!” [1. B. 34]

Cho‘lpon ushbu she’riy tarjimada so‘zma-so‘z tarjima yo‘lidan bormay, balki mazmunni yetakchi bilib, badiiy obrazlar yaratgan holda, shuningdek, xalqona ifodalar, xalq og‘zaki ijodiga xos uslub, hazil va hajvni, milliy koloritni saqlagan holda asarni mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘girgan.

Cho‘lpon tarjimalari, xususan, masal tarjimalari haqida so‘z borganda, adabiyotshunoslar Cho‘lpon tomonidan I.Krilovning “Bo‘ri bilan qo‘zichoq” masalini tarjima qilganini ta’kidlashadi, xolos. Ayni shu masal tarjimasining manbalari haqida so‘z borganda uchta nashr – O.Sharafiddinov va J.Sharifiy hammuallifligidagi “Adabiyot xrestomatiyasi”dagi (1935), 1936-yil “Mushtum” jurnalidagi hamda 1937-yilda chop etilgan “Adabiyot xrestomatiyasi”dagi matnlar haqida to‘xtala olamiz.

Shu vaqtgacha I.Krilovning ushbu masali tarjimasining vaqti 1936-yilda “Mushtum” jurnalida masal chop etilishi bilan belgilanar edi. “Cho‘lpon. Asarlar” to‘rt jildlik to‘plamda [17], “Jadid adabiyoti namoyandalari” turkumidagi “Abdulhamid Cho‘lpon” to‘plamida [18] va boshqa nashrlarda ham masal tarjimasi sanasi 1936-yil deb ko‘rsatilgan.

Yuqorida zikr etilgan ikkala darslikda mazkur tarjima berilgan. 1935-yildagi masal tarjimasi so‘ngida “Cho‘lpon tarjimasi” deb yozib qo‘yilgan. J.Sharipovning “I.A.Krilov masallari o‘zbek tilida” maqolasida esa bu sana 1933-yil deb ko‘rsatiladi: “Oktyabr revolyutsiyasidan keyin I.A.Krilov masallari muntazam ravishda, ko‘plab tarjima qilindi va o‘zbek maktabi darslik-xrestomatiyalariga kiritildi. 1933-yilda I.Krilovning “Kakku ila xo‘roz”, “Sichqon ila kalamush”, “Olaqarg‘a va qurbaqa” masallari tarjimalari J.Sharifiy tuzgan adabiyot xrestomatiyasida bosilib chiqdi va o‘sha yili O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi O.Sharafiddinov va J.Sharifiylarning avtorligidagi o‘rta maktablarning “Adabiyot” darsligiga ham I.Krilovning “Bo‘ri bilan qo‘zichoq”, “Kvartet” kabi masallari tarjimasi kiritilgan” [7. B. 59]. Shuningdek, J.Sharipov “mazkur darslikka kirgan masallarning tarjimalari (tarjimoni Cho‘lpon) asl nusxaga monand bo‘lib, asarning mazmunini, ruhini aynan bera olgan” deb tarjimon Cho‘lpon ekanini alohida ta’kidlab o‘tadi. Sahifa ostida esa “A.Sharafiddinov, J.Sharifiy. Adabiyot darsligi, 1933” tarzida nashr ma’lumotlari berilgan.

Agar bu sanalarni hisobga oladigan bo‘lsak, Cho‘lpon I.Krilov tarjimalariga 30-yillardayoq kirishganini taxmin qilish mumkin. Shunga ko‘ra, “Bo‘ri bilan qo‘zichoq” masalining yozilish davri 1936-yil emas, balki undan avvalroq, 1930 yoki 1933-yillar ekanligini belgilash mumkin. Bu esa Cho‘lpon ijodiy biografiyasi sanalarini aniqlashtirishda, tiklashda, qayta yaratishda muhim ma’lumot deb hisoblaymiz.

Biroq qo‘limizda 1933-yildagi darslik-xrestomatiya bo‘lmagani sababli, “Bo‘ri bilan qo‘zichoq” masali tarjimasining hozircha faqat 1935–1937-yildagi darsliklarda berilgan matni ustida so‘z yurita olamiz. Mazkur masaldan so‘ng masalnavisning “Kvartet” she’riy asari tarjimasi berilgan. Uning so‘ngida ham yuqoridagi kabi “Cho‘lpon tarjimasi” yozuvi bor. Demak, Cho‘lpon Krilov masallarining tarjimasiga xiyla oldin kirishgan bo‘lib, masallarni darslik uchun maxsus tayyorlab bergan hamda ular 1933-, 1935-, 1937-yillarda chop etilgan.

1935- va 1937-yil chop etilgan darsliklardagi matnlar deyarli o‘xshash bo‘lib, ayrim juz’iy farqlar mavjud. Matnlar o‘zaro solishtirilganda, jami 58 misradan iborat bo‘lib, she’riy masalning grafik shakli va ayrim leksik-grammatik so‘z shakllari, tinish belgilarining qo‘llanishi jihatidan farq qilishi kuzatiladi. Birinchi darslikda masalning birinchi bandi, ya’ni to‘rt misra asarning so‘zboshisi, masalning muqaddimasi sifatida grafik chiziq bilan asosiy qismdan ajratib berilgan. Ikkinchi darslikda esa bu grafik chiziq berilmasdan, asosiy qismdan ajratilgan.

Masal tarjimasining birinchi misrasi (“*Daraxtning mo‘rtini qurt yeydi doim”*) xalq maqol-matallaridan olingani uchun har ikki darslikda ham qo‘shtirnoqqa olingan. “Masal”, “ertaki so‘zlayik”, “ichalmayman”, “yalmayman”, “hech bir”, “buhtan” kabi yana bir qancha so‘zlar 30-yillar o‘zbek tili imlosi va grafikasiga ko‘ra yozilgan. 1935-yildagi darslikda “men” kishilik olmoshi esa keyingi darslikda “man” shaklida beriladi:

“*Sen iflosni bilaman men*!” (1935) – “*Sen iflosni bilaman man*!” (1937)

She’riy tarjimaning 1935-yildagi nashrida bo‘ri va qo‘zichoqning suhbati ko‘chirma gap shaklida qo‘shtirnoq ichida berilsa, keyingi darslikda xatboshidan ham tire belgisi, ham qo‘shtirnoq bilan berilishini ko‘ramiz. Demak, o‘sha davr til, imlo qoidalari va ularning qo‘llanishi bo‘yicha ayrim o‘zgarishlar vujudga kelgan.

Masal so‘ngidagi:

“Surushtirib o‘lturishga vaqtim bor<u>dimi</u>?
Qorin ochsa, ovqat bo‘lsa – tanlanar<u>dimi</u>?!”

misralari ikkinchi darslikda:

“Surushtirib o‘turishga vaqtim bormi,
Qorin ochsa, ovqat bo‘lsa – tanlanarmi?”

shaklida chop etilgan. Keyingi nashrlarda esa:

“Surushtirib o‘tirishga vaqtim bormidi?
Qorning ochsa, ovqat bo‘lsa, tanlanarmidi?”

tarzida berilishi ma’qul ko‘rilgan. [18. B. 194].

Sobiq sovet davrida chop etilgan to‘plam, darslik, xrestomatiyalarda masal tarjimasi o‘zgarishga uchragan:

Daraxtning mo‘rtini qurt yeydi doim,
Tarixda misollar juda ko‘p bunga.
Tarix to‘g‘risida qolayliq-da jim,
Ertaki so‘zlayik, quloq ber shunga [2. B. 110].

Daraxtning bo‘shini qurt yeydi doim,
Tarixda misollar juda ko‘p bunga.
Tarix to‘g‘risida qolaylik-da jim,
Bir ertak so‘ylaylik, quloq ber shunga [3. B. 177].

“Mushtum” jurnalining 1936-yilda chop etilgan masal matnidan avval quyidagi so‘zboshi keltirilgan: *“(Italiya – Habashiston urushi) Kuch-quvvat, urush qurollari va boshqa asbob-uskunalarga qaraganda Italiyani “fil”, Habashistonni “qil” desa bo‘ladi. Italiya fashizmi to‘ymas ajdar-ku! Shunday bo‘laturib butun dunyoga qiyqiriq soladiki: “Dod Habashistonning dastidan! Meni yeyman deydi!” munaqa fashistlarcha harakatlar ko‘proq darrandalar orasida bo‘lardi va o‘shalarga kelishardi. Nomlari ham “darranda”, axir, ularning! Shu darranda kayfiyatini mashhur rus maqolchi shoiri Krilov yaxshi tasvir qiladi. Biz shuning tarjimasini beramiz”*[17. B. 319]. Mazkur so‘zboshi yoxud epigraf Cho‘lpon tomonidan yoki nashriyot tomonidan yozilgani – taxmin. Biroq bu so‘zboshi XX asr boshlarida butun dunyoda bo‘layotgan siyosiy buhronlar, dunyoni gegemon davlatlar tomonidan bo‘lib olish g‘oyasi, ikkinchi jahon urushining bo‘lg‘usi fojialari, tahlikalari haqidagi bong urushi deya olamiz. Darhaqiqat, “Cho‘lpon tarjimaga tanlangan asarlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, ular orqali o‘z davridagi ijtimoiy-siyosiy hodisalarga munosabatini ifodalashga harakat qilgan edi. Ya’ni masaldagi umumiy holat umuman zo‘ravonlikka – Italiya fashizmi o‘zga yurtlarga o‘tkazayotgan zo‘ravonlik siyosatiga ham, ziyolilar hurfikrliligini bo‘g‘ib, ularni ham ruhan, ham jismonan mahv etayotgan Stalinning qatag‘on rejimiga ham birdek aloqador etiladi” [11. B. 6128].

D.Quronov va I.Madg‘oziyevlar 1935-, 1937-yilda chop etilgan “Adabiyot xrestomatiya”larida rus masalnavisining “Kvartet” she’riy masali Cho‘lpon tarjimasida bosilganini aniqladilar [12. B. 36].

Olim Sharafiddinov va J.Sharifiylar hammuallifligidagi “Adabiyot” darsligi o‘rta maktablarning 5-sinfi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, O‘zSSR davlat nashriyotida 1935-yilda chop etilgan. Bu darslikning titul varag‘ida “Qaytadan ishlangan ikkinchi bosmasi” degan izoh mavjud. Mazkur izoh darslikning 1935-yildan avvalgi nashrlari bo‘lganini hamda masalning qachon tarjima qilingani haqida ma’lumot berishi ehtimolini ko‘rsatadi. Mazkur darslikning 109–115-sahifalarida I.A.Krilov hayoti va ijodiga o‘rin ajratilgan bo‘lib, dastlab masalnavisning tarjimayi holi, so‘ngra “Bo‘ri bilan qo‘zichoq”, keyin esa “Kvartet” masallari berilgan. Har ikki masal matni so‘ngida lotin yozuvida “Cho‘lpon tarjimasi” degan yozuv bor.

Biroq darslikning 1937-yildagi nashrida “Cho‘lpon tarjimasi” izohi uchramaydi. Bu yillarda Cho‘lpon va u singari jadid ziyolilarini qatl etishga qaratilgan mash’um qatag‘on boshlangan, mavjud mafkuraning jadidlar nomlarini tarix sahifasidan o‘chirib tashlash kabi siyosiy maqsadi ushbu darslikda tarjimon nomini ko‘rsatmay chop etilganlikdan ham anglashiladi. Mazkur darslik “O‘quv pedagogik davlat nashriyoti”-da chop etilgan bo‘lib, qaytadan ishlangan 4-nashri hisoblanadi. Ushbu qaydlardan 1936-yilda darslikning 3-nashri chop etilgani hamda 1937-yildagi darslik mundarijasiga ko‘ra 1936-yildagi mundarija o‘zgarmaganini xulosa qilish mumkin. Bu esa Cho‘lpon tarjimasidagi masallar 1937-yil va undan keyingi yillarda ham darsliklar orqali ko‘plab nusxalarda tarqalganini anglatadi.

“Kvartet” masali tarjimasining qo‘limizda mavjud ikkala darslikdagi matnlarida ayrim juz’iy farqlar bor. She’riy masal tarjimasidagi so‘zlarning yozilish shakllarida quyidagi tafovutlar ko‘rinadi: xushovoz - xush-ovoz, har birisi – harbirisi, asvab – asbab, to‘rtavi – to‘rttovi, shoshmay turing – shoshmayturing, bir oz – biroz, xotir jam – xotirjam.

Mazkur masal I.Krilov tomonidan 1811-yilda yozilgan bo‘lib, hajviy mazmunga ega. Cho‘lponning boshqa tarjimalari kabi bu masal ham ijodiy yondashilib amalga oshirilgan. Masalning birinchi bandi:

Krilovda:
Проказница – Мартышка,
Осёл,
Козёл,
Да косалапый Мишка
Затеяли сыграт квартет [19. B. 150]

Cho‘lponda:
O‘zimiz bilgan maymunjon,
Undan so‘ng ayiq polvon,
So‘ngra eshak xushovoz,
Undan so‘ng echki darvoz –
Tuzdilar bir kvartet [3. B. 178].

Tarjimon maymun haqidagi “sho‘x”, “zumrasha”, “shumtaka”, “to‘polonchi” ma’nolarini beruvchi “проказница” so‘zini “*o‘zimiz bilgan maymunjon*” degan so‘zlar bilan almashtiradi. Bu o‘rinda “o‘zimiz bilgan” deganda o‘quvchi xayoliga darhol maymunning tabiiy serharakatligi, bir joyda tek turmay, shoxdan shoxga sakrashi, turli qiliqlar qilishi keladi. Maymunday jonivor bilan avvaldan tanish kitobxonga “o‘zimiz bilgan” degan so‘zlar maymunning g‘ayrioddiy qiliqlariga ishora qilib, uni qaytadan eslatadi. Rus masalida “мартышка – мишка” so‘zlari qofiya bo‘lgan bo‘lsa, Cho‘lpon tarjimasida ham ayni “maymunjon – ayiq polvon” so‘zlari qofiya bo‘lib kelgan. Krilovda eshakka tavsif berilmagan bo‘lsa-da, Cho‘lpon kinoyali tarzda eshakning “xushovoz”ligini ta’kidlab o‘tadi. Qolaversa, masalning keyingi o‘rinlarida eshakning qichqirib gapirishi, aql o‘rgatishi haqida so‘z boradi. Xuddi shu kabi masalning asl matnida echki ta’riflanmagan bo‘lsa ham, Cho‘lpon tarjimasida bu jonivor “dorboz” deb tavsiflangan. Buni tarjimonning ijodiy yondashuvi deb izohlash mumkin.

Masalning keyingi bandida nota, bas, alt, skripka, lad kabi cholg‘u asboblari va musiqaga doir atamalar sanalgan bo‘lsa, tarjima matnida to‘rttala hayvonning “*Har birisi bittadan Torlik asvob keltir*”gani aytiladi. Shunga qaramay, bu hayvonlar qancha harakat qilishsa-da, biror ma’nili kuy chiqmaydi. Masaldagi: “*Ударили в смычки, дерут, а толку нет”* [19. B. 150] misrasi tarjima variantida ritorik so‘roq gap orqali, ya’ni hayvonlarning birorta ham kuy chala olmaganliklari kuchaytirilib, savol tarzida ta’kidlanadi:

Tintalashdi torlarni...
Qani
Ohang chiqqani?! [3. B. 178]

Cho‘lponning mahorati shundaki, tarjimada so‘zlar miqdorini ham saqlab qolgan:

Ударили - 1/ в смычки, - 2/ дерут, - 3/ а толку -4 / нет. -5/
Tintalashdi -1/ torlarni... -2/ Qani -3/ Ohang -4/ chiqqani?! -5/

Shundan so‘ng maymun so‘zlaydi.

Krilovda:
“Стой, братцы, стой!» – кричит Мартышка, – Погодите!
Как музыке идти? Вед вы не так сидите» [19. B. 150].

Cho‘lponda:
Maymun dedi: “Do‘stlarim!
Shoshmay turing, arzim bor:
To‘g‘ri o‘turish kerak,
Ana shunda kuylar tor! [3. B. 79]

Asliyatda maymun boshqa hayvonlarga “Sizlar to‘g‘ri o‘tirmayapsizlar, bu ahvolda musiqa qanday paydo bo‘lsin?” deb tanbeh bersa, tarjimada “To‘g‘ri o‘tirish kerak, keyin tor kuylaydi!” deb buyruq beradi, so‘ngra “sozanda”larni joylashtira boshlaydi.

Krilovda:
Ты с басом, Мишенка, садись против альта,
Я, прима, сяду против вторы [19. B. 150].

Cho‘lponda:
Sen ayiqjon, “bas”ingni
“Alt” yonida chalasan,
Men – boshlovchi bo‘laman...
Hammang hayron qolasan! [3. B. 179]

Bas, alt kabilar tarjimada satr osti izohida “Yevropa cholg‘u asboblari nomi” deb berilgan. “Prima” – ansamblning yetakchi partiyasi, kvartetning birinchi – yetakchi skripkachisi. Bu so‘z tarjimada “boshlovchi” deb o‘girilgan. “Вторы” – “ikkinchi” ma’nosidagi so‘z, bu o‘rinda skripkachiga jo‘rovozlik qiluvchi, ikkinchi skripkachidir. Cho‘lpon mazkur Yevropa cholg‘u asboblarini yaxshi bilgan. Lekin masalning mohiyati, urg‘u beriladigan mavzu iste’dodsiz va mahoratsiz biror nimaga erisha olmaslik haqida bo‘lgani sababli ayrim cholg‘u asboblari va musiqaga doir atamalarni aynan keltirmagan.

Krilovda:
Разселись, начали квартет,
Он всё таки на лад нейдет [19. B. 150].

Cho‘lponda:
“Hov” dedilar uch qardosh...
Yana ohang chiqmaydi! [3. B.179]

Asliyatda keltirilgan “lad” atamasi tarjimada aynan keltirilmagan. “Lad” ma’lum tartibda joylashgan tovushlar tizimi hisoblanadi. Ladlar musiqiy asarning umumiy pafosini belgilaydi. Shunga ko‘ra, shodlik yoki qayg‘uni ifodalaydigan ladlarga bo‘linadi. Tarjimada “lad” atamasi o‘rnida “uch qardosh”ning “hov” deb kuylashga urinishi tasvirlangan hamda bu ifoda orqali o‘quvchi ko‘z o‘ngida hayvonlarning “kuylashi” jonliroq namoyon bo‘ladi.

Masalning davomida maymunning maslahati bilan ish qilinsa-da, kuy chiqmaydi. Eshakning maslahati esa bunday:

Krilovda:
Кричит Осёл, – мы, верно, уж поладим,
Коль рядом сядем” [19. B. 150].

Cho‘lponda:
Eshak deydi: “Biz endi
Chizilaylik bir qator!” [3. B. 179]

Rus tilidagi “*Коль рядом сядем”*, ya’ni “agar yonma-yon o‘tirsak...” tarzidagi gapni tarjimon ixcham shaklda va aynan shu mazmunni bildiradigan “bir qator bo‘lib tizilib turmoq (o‘tirmoq)”ni Andijon shevasidagi “chizilmoq” orqali ifodalaydi. Eshakning maslahatiga boshqa hayvonlarning ko‘nganini Krilovda ko‘pgina so‘zlar orqali o‘qisak, Cho‘lponda juda ixcham shaklda berilganini ko‘ramiz:

Krilovda:
Послушались Осла: уселись чинно в ряд;
А всё таки Квартет нейдет на лад
[19. B. 150].

Cho‘lponda:
Ular bunga ham ko‘ndi.
Yana kuylamaydi tor! [3. B.179]

Hayvonlar shuncha urinsalar ham biror kuy hosil bo‘lavermagach, ular o‘rtasida bahs, munozara chiqadi. Bu holat masalda quyidagicha berilgan:

Krilovda:
Вот пуще прежнего пошли у них разборы
И споры,
Кому и как сидеть [19. B. 150].

Cho‘lponda:
Shundan keyin orada
Boshlandi gap talashuv,
Mashq o‘rniga talada
G‘ovur-g‘uvur va shov-shuv! [3. B.179]

Asliyatdagi “*пуще прежнего пошли*” so‘zlaridagi “p” undoshining takrori – alliteratsiya hamda “*щ”, “ж”, “ш”* shovqinli, sirg‘aluvchi tovushlari ishtiroki asosida hayvonlar yig‘inidagi bahsli holat manzarasi yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bu esa tarjimada ham to‘la saqlangan bo‘lib, ushbu band tarjimasidagi “shundan”, “boshlandi”, “talashuv”, “mashq”, “shov-shuv” so‘zlaridagi “sh” tovushining olti marta takrori hayvonlar o‘rtasidagi shovqinni assotsiativ tarzda ta’kidlaydi. Ana shu shovqin ustiga bulbul kelib qoladi, hayvonlar bulbulga quyidagicha iltimos qiladilar:

Krilovda:
“Пожалуй, – говорят, – возми на час терпенье,
Чтобы Квартет в порядок наш привест:
И ноты есть у нас, и инструменты есть,
Скажи лишь, как нам сесть!» –
[19. B. 150]

Cho‘lponda:
Ular dedi: “Hoy bulbul,
O‘tunchimiz senga shu:
Bir oz zahmatga kirgin,
Ohangni eplab bergin!
Asbob, nota joyida,
Lekin bundan yo‘q foyda,
Chunki: o‘turush buzuq!
Mana shunga yo‘l-yo‘ruq
Topib bersang bo‘ladi,
Tor ohangga to‘ladi!” [3. B.179]

Asliyatda hayvonlar bulbuldan bir soatlik sabr topib, Kvartetni tartibga keltirib berishni so‘raydilar. Tarjimada esa bu mazmun ixcham shaklda “Bir oz zahmatga kirgin, Ohangni eplab bergin!” tarzida o‘girilgan. Hayvonlar bulbuldan qanday o‘tirishimiz kerak (“Скажи лишь, как нам сесть!”), deb so‘rasalar, tarjimada kuy chiqmayotganining sababi “chunki o‘turush buzuq!” tarzida ma’no kuchaytirilib tarjima qilingan. Bu esa hayvonlarning avzoyi buzilgani, kayfiyati yaxshi emasligini yanada ta’kidlashga xizmat qiladi. Bulbulning javobi masal xotimasi o‘rnida keladi.

Krilovda:
«Чтоб музыкантом быть, так надобно уменье
И уши ваших понежней, –
Им отвечает Соловей, –
А вы, друзя, как ни садитесь,
Все в музыканты не годитесь» [19. B. 150]

Cho‘lponda:
Bulbul dedi: “Yo‘q, do‘stlar!
Bunga kerak zo‘r hunar!
Siz tushmangiz tashvishga:
Uquv kerak bu ishga!
Qanday o‘tirsangiz ham
Mashshoqlikdan xotir jam!” [3. B.179]

O.Sharafiddinov “Bo‘ri bilan qo‘zichoq” masali tarjimasi haqida to‘xtalib: “Men hech qachon bu masalni ruscha asli bilan solishtirib ko‘rgan emasman: lekin o‘ylaymankim, badiiy barkamollikda ular bir-biridan qolishmasa kerak” [4. B. 102] deb yozgandi. Ushbu fikr va munosabatni “Kvartet” masaliga ham tatbiq qilish mumkin.

“Kvartet” masalidan keyin “Krilovning masallari to‘g‘risida”, “Krilov masallarida badiiy ustalik” nomli mavzular berilgan. Darslikdagi ushbu mavzular va I.Krilov tarjimayi holi haqidagi ma’lumotlarni ham Cho‘lpon tayyorlagan degan taxminiy xulosaga kelish mumkin. Chunki, mantiqan olganda, ma’lum bir ijodkor asarining matnini o‘rgangan va nashrga tayyorlagan mutaxassis qo‘lidagi asarni, uning muallifi hayoti va ijodini atroflicha o‘rganishi tabiiy. Shuningdek, I.Krilov tarjimayi holi va masallar haqidagi mavzularning yoritilishi Cho‘lpon uslubini eslatadi.

Xulosa

Cho‘lpon 1930-yillar – qatag‘on siyosati avj olib borayotgan vaqtda ijodiy faoliyatini badiiy tarjimaga bag‘ishladi. Mustaqil asarlarini yaratishga izn bermagan davrda ijodkor jahon adabiyoti durdonalaridan yuzlab tarjimalarni amalga oshirdi. Cho‘lpon tarjimalari tarkibida she’riy ertak va masallar ham alohida o‘rin tutadi. A.S.Pushkinning “Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak”, I.S.Krilovning “Bo‘ri bilan qo‘zichoq”, “Kvartet” asarlari ham boshqa tarjimalar qatorida mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Xususan “Bo‘ri bilan qo‘zichoq” masalining yozilish davri 1936-yil emas, 1930 yoxud 1933-yil ekanini qayd etish mumkin. Bu esa Cho‘lpon ijodiy biografiyasini qayta yaratishda muhim ma’lumot hisoblanadi. Cho‘lpon tarjima asarlari manbayi va matnining o‘rganilishi, tarjimashunoslik jihatidan tadqiq etilishi adib ijodiy dunyoqarashi, badiiy mahorati, tarjimonlik iste’dodi qirralarini baholashda zaruriy vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Adabiyot xrestomatiyasi. (Boshlang‘ich maktablar uchun. 2-bo‘lim. Boshlang‘ich maktablarning 4-sinfi uchun). /Tuzuvchi J.Sharifiy. Qaytadan ishlangan 5-nashri. – Toshkent: O‘quv-pedagogik davlat nashriyoti, 1937. – 162 b.

2. Adabiyot. (O‘rta maktablarning 5-sinfi uchun darslik). / Tuzuvchilar: O.Sharafiddinov, J.Sharifiy. Qaytadan ishlangan 2-bosmasi. – Toshkent: O‘zSSR davlat nashriyoti, 1935. – 162 b.

3. Adabiyot. (O‘rta maktablarning 5-sinfi uchun darslik). / Tuzuvchilar O.Sharafiddinov, J.Sharifiy. Qaytadan ishlangan 4-nashri. – Toshkent: O‘quv-pedagogik davlat nashriyoti, 1937. – 195 b.

4. *Шарафиддинов О*. Чўлпон. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – 120 б.

5. *Шарафиддинов О*. Чўлпон – таржимон // “Гулистон” журнали, 1990. – № 2. – 65-70 б.

6. *Саломов Ғ.* Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 385 б.

7. *Шарипов Ж*. Бадиий таржималар ва моҳир таржимонлар. – Тошкент: Фан, 1972. – 260 б.

8. *Шарипов Ж.* Шеърий таржиманинг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1959. – 155 б.

9. *Каримов Н*. Чўлпон Пушкин таржимони // “Ёш ленинчи” газетаси. 1990 йил 8 июнь.

10. *Владимирова Н*. Пушкин Чўлпон таржимасида // Жаҳон адабиёти, 2008. –№ 7. – Б. 133–139.

11. *Kuronov D., Abdullayeva D., Islomova S., Madgaziyev I., Sheraliyeva M.* Abdulhamid Cholpon’s Translation Activities //Design Engineering. – 2021. Issue 9. – Pp. 6121–6131.

12. *Quronov D., Madg‘oziyev I*. Cho‘lpon publitsistikasi va tarjimonlik faoliyatiga doir yangi aniqlangan manbalar xususida. // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar. – 2022. – № 7 (67). – B. 37–45.

13. *Рахимов Т.А*. Переводческое мастерство Чулпана (на материале узбекских переводов поэтических и драматических произведений А.С.Пушкина): Дисс... канд. фил. наук. – Ташкент, 1993. – 140 с.

14. *Ульмасов Р.* Переводческое мастерство Чулпана и проблема преемственности в узбекских переводах романа М.Горького “Мать”. Дисс... канд. фил. наук. – Ташкент, 1991. – 153 s.

15. *Abdullayeva D.* Cho‘lpon jahon she’riyati tarjimoni. // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol.2. Issue 11. – Pp. 593–607. [Elektron manba]. URL: www.ares.uz. (Murojaat etilgan sana: 03.11.2022)

16. *Пушкин А.С.* Сказка о попе и о работнике его Балде. – Москва: Pablic Domain, 1830. – 7 с.

17. *Чўлпон А*. Асарлар. 4 жилдлик. 4-жилд. / Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Д.Неъматова). – Тошкент: Академнашр, 2016. – 384 б.

18. *Cho‘lpon, A.* She’rlar, hikoyalar va nasriy tarjimalar. / Nashrga tayyorlovchilar: I.Madg‘oziyev, S.Islomova. – T.: Zabarjadmedia, 2022. – 336 b.

19. *Крылов И.А.* Квартет. / В кн.: Русская хрестоматия. Сборник статей выбранных из произведений русской литературы. / Сост. преп. В.А.Яковлевым, Н.Н.Полевой. – Санкт-Петербург: Я.А.Исаков, 1874. – 242 с.

CHOLPON AS A TRANSLATOR OF POETIC FAIRY TALES AND FABLES

Dildora Z.Abdullayeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 5(89). 52-61.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *translation, poetic fairy tale by A.S.Pushkin, translations of fables by I.A.Krylov, translations by Cholpon, artistic skill in translation.*

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cholpon, who was extensively engaged in literary translation, translated Alexander Pushkin’s fairy tale in verse “The Tale of the Priest and of His Workman Balda” and two fables by Ivan Krylov: “The Wolf and the Lamb” and “The Quartet”. Information regarding Cholpon as the translator of these works was previously vague. While the translator of the fable “The Wolf and the Lamb” remained unrecorded for a long time, the texts of the translations of the other two works, despite being published in 1935–1937, had not been widely disseminated until the present day. The article analyzes the texts of these translations, differences in their publications, and the author’s mastery in translation.

Materials and methods. In Cholpon’s translation activities, there are one poetic fairy tale and two fable translations, the texts of which were published in Literature Anthologies during 1935–1937. The article employs comparative-typological and historical-cultural methods.

Results. In the 1930s, Uzbek translation studies within literary scholarship addressed several scientific researches and articles. However, this does not mean that Cholpon’s translation activities were fully encompassed. No comprehensive scholarly investigations have been conducted regarding Cholpon’s translation work or the characterization of his translated works.

It would not be an exaggeration to say that Cholpon brought A.Pushkin’s work “The Tale of the Priest and of His Workman Balda” to perfection in translation. Although the poetic meter of the original was not precisely preserved, the style characteristic of a fairy tale and the sarcasm are present. It can be assumed that Cholpon began translating I.Krylov’s works as early as the 1930s. Accordingly, the composition date of the fable “The Wolf and the Lamb” can be established not as 1936, but earlier, in 1930 or 1933. This is considered important information for clarifying, restoring, and reconstructing the dates in Cholpon’s creative biography. It was determined that the poetic fable “The Quartet” by the Russian fabulist was published in Cho‘lpon’s translation in the Literature Anthologies of 1935 and 1937. The textbook Literature by O.Sharafiddinov and J.Sharifiy was intended for the 5th grade of secondary schools and was published by the UzSSR State Publishing House in 1935.

Conclusion. In the 1930s-a period when Cho‘lpon was not permitted to create independent works-he produced hundreds of translations from masterpieces of world literature. It can be noted that the composition dates of A.S.Pushkin’s “The Tale of the Priest and of His Workman Balda”, I.A.Krylov’s “The Wolf and the Lamb”, and “The Quartet” are not 1936, but 1930 or 1933. This constitutes significant information for reconstructing Cho‘lpon’s creative biography. The scholarly investigation of Cho‘lpon’s translated works is deemed an essential task in evaluating the author’s worldview and translational talent.

References:

1. Sharifiy, J. (Com.by) (1939) *Adabiyot xrestomatiyasi* [Literature Anthology]. Boshlang‘ich maktablarning 4-sinfi uchun [For the 4th grade of primary schools]. Part 2. Tashkent: O‘quv-pedagogik davlat nashriyoti.

2. Sharafiddinov, O., Sharifiy, J. (1935). *Adabiyot* [Literature]. O‘rta maktablarning 5-sinfi uchun darslik [Textbook for the 5th grade of secondary schools]. Tashkent: O‘zSSR davlat nashriyoti.

3. Sharafiddinov, O., Sharifiy, J. (1937). *Adabiyot* [Literature]. O‘rta maktablarning 5-sinfi uchun darslik [Textbook for the 5th grade of secondary schools]. Tashkent: O‘quv-pedagogik davlat nashriyoti.

4. Sharafiddinov, O. (1994). *Cho‘lpon* [Chulpan]. Tashkent: Yozuvchi.
5. Sharafiddinov, O. (1990). *Cho‘lpon tarjimon* [Chulpan as a Translator]. Guliston. No 2. Pp. 65-70.
6. Salomov, G. (1966). *Til va tarjima* [Language and Translation]. Tashkent: Fan.
7. Sharipov, J. (1972). *Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar* [Artistic Translations and Master Translators]. Tashkent: Fan.
8. Sharipov, J. (1959). *She’riy tarjimaning ba’zi masalalari* [Some Issues of Poetic Translation]. Tashkent: Fan.
9. Karimov, N. (1990). Cho‘lpon – Pushkin tarjimoni [Cholpon as Translator of Pushkin]. *Yosh Leninchi*. June 8.
10. Vladimirova, N. (2008). Pushkin Cho‘lpon tarjimasida [Pushkin in Cho‘lpon’s Translation]. *Jahon adabiyoti*. No 7. Pp. 133–139.
11. Kuronov, D., Abdullayeva, D., Islomova, S., Madgaziyev, I., Sheraliyeva, M. (2021). Abdulhamid Cholpon’s Translation Activities. *Design Engineering*. Issue 9. Pp. 6121-6131.
12. Quronov, D., Madg‘oziyev, I. (2022). Cho‘lpon publitsistikasi va tarjimonlik faoliyatiga doir yangi aniqlangan manbalar xususida [About the newly identified sources regarding Chulpan publicism and translation activities]. *Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar.* 7(67). Pp. 37-45.
13. Rahimov, T.A. (1993) Perevodcheskoe masterstvo Chulpana (na materiale uzbekskih perevodov poeticheskih i dramaticheskih proizvedenij A.S.Pushkina) [Chulpan’s Translation Mastery (Based on Uzbek Translations of A.S.Pushkin’s Poetic and Dramatic Works]. Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Tashkent.
14. Ul’masov, R. (1991) Perevodcheskoe masterstvo Chulpana i problema preemstvennosti v uzbekskih perevodah romana M.Gor’kogo “Mat’” [Chulpan’s Translation Mastery and the Problem of Continuity in Uzbek Translations of M. Gorky’s Novel “Mother”]. Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Tashkent.
15. Abdullayeva, D. (2021). Cho‘lpon jahon she’riyati tarjimoni [Cho‘lpon as Translator of World Poetry]. Academic Research in Educational Sciences. No 2(11). Pp. 593-607.
16. Pushkin, A. S. (1830). The Tale of the Priest and of His Workman Balda. Moscow: Public Domain.
17. Cholpan, A. (2016). Asarlar [Works]. In 4 volumes. Vol.4. Tashkent: Akademnashr.
18. Cholpan, A. (2022). She’rlar, hikoyalar va nasriy tarjimalar [Poems, Stories, and Prose Translations]. Tashkent: Zabarjadmedia.
19. Krylov, I.A. (1874) Kvartet [The Quartet]. In: Russkaya hrestomatiya. Sbornik statej vybrannyh iz proizvedenij russkoj literatury Russian Anthology. Collection of Articles Selected from Works of Russian Literature]. Sankt-Peterburg: Y.A.Isakov.

Muallif haqida ma’lumot:
ABDULLAYEVA Dildoraxon Zumratbekovna – filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori. E-mail: dildora.abd@mail.ru